

Bosit Xoliqov asari.

X. Rahmonov musiqasi

Rais uylanarmush 3 parda 5 ko'rinishi muzikali pesya

Birinchi ko'rinish

Kolxov raisining kabinetini. Safar polvon, Xaydar tajaning Luqmonov o'tirdilar. Xaydar dutor chalib hirgoyi qilmoqda. Rais boshini quyi solib ashula tinglamoqda.

Xaydar- Qumdan quyon qochirdim, iyagi yo'qdir,

O'ynab turgan qizlarning suyagi yo'qdir,

Yondiradi ko'zlari jonon qizlarning,

Yigitlarning betlashga yuragi yo'qdir.

Ko'ylak oldim yorimga, taqsin tugmacha,

Yoqalari kelishgan qarang burmacha,

Birmuncha ko'ylak лшнши yorim turadi,

Boshidagi darrami yoki xurmacha. (kulgi).

Safar- Yashavor-ey uka. Shu xizmatlaring uchun jigaringni qiriq ming pora qilgan ko'nglini yo'lini Gulnoraga o'zim uylantirib qo'ygan bo'lsin.

Xaydar- Quluq ho'jayin quluq. Ammo men sizning gapingizga uncha ishonmay qo'ydim. Xar yili uylantirib qo'yaman deb aldaysiz.

Luqmonov- Xaydarvoy, bu umr savdosi-da, rais ham shuni o'ylab arvonni uzun tashlagan bo'lsa kerak-da.

Xaydar- Ammo lekin raisning anvonlari juda uzun ekan, mening umrim yetmasmikin deb qo'rqaman.

Safar- Qo'rqma, undan ko'ra kiyov yigit, ashula juft bo'lsin.

Xaydar- Sal tomoq-pomoqni xo'llab, olay xo'jayin.

Safar- Obbo, shunaqangi nozing yomon-da. Luqmonov sizdan xam un chiqadimi, yoki tekin ashulani eshitib o'tiraverasizmi?

Luqmonov- Men agar Xaydarvoyday ashula etishni bilsam, bugalterlik qilmay, birorta teatorga kirib ketardim.

Safar- E, siz xuddi quruq g'olaga o'xshaysiz. O'lgudek sovuqsiz-da. Bilmayman , onongiz sizni muzxonada tuqqanmi.

Xaydar- Bopladingiz xo'jayin, bopladingiz. Yomon gapni qiyasiz-da.

Luqmonov- Xo'jayin, xar kim o'z kasbiga omil. Bizga cho't qoqish bo'lsa.

Safar- E, siz o'sha cho't qoqishni xam eplay olmayapsiz-ku. Reviziya kelganda men bo'lmaganda asfalasofini bo'lardingiz.

Luqmonov- Xo'jayin, ashula aytishning rastari bo'lmas ekan, lekin ashula juft bo'lsin deb bizga o'xshab butulka ko'rsatib yugurganlarning ko'zini olovi chiqib ketar ekan. O'tgan yilgi o'tirish esingizda bormi?

Safar- Lekin o'sha o'tirish juda boshqacha bo'lgan edi-a. Undan keyingi o'tirishlar o'tirishmi. Ashulalar xam ja ketgan edi.

Ashula- Bog' bo'lsa bo'ston bo'lsa, omon yor

Chamanzor, gulshan bo'lsa, omon yor.

Jonni olar xumor ko'z, omon yor,

Yor bo'lsa, jonon bo'lsa, omon yor.

Arsh qilamiz, ishrat qilamiz,

Mayni quy roxat qilamiz.

__O__

Qara-chi kim ekan, mana bularni yig'ishtirib oling!

Dilbarhon, xa oyim qizim-a!

Xaydar- Safarali aka biro dam yo'qlab kepti. Lektor emush. (telefonga.) Qanaqa lektor? Rais yo'q deb qo'yaqol. /Telefon jiringladi/. Allo, allo! Kim bu? /qo'yadi/. Rostini aytsam ish ham telefon ham jonga tegdi. Bo'lar –bo'lmasga jiring-jiring.

/Xaydar kiradi/ .

Xaydar- Xo'jayin jo'natib keldim.

Safar- Boplapsan. Ular lektorman deb kelishadi-yu, o'zlari xech narsani bilishmaydi. O'tgan yili bitasi kelib odam maymundan paydo bo'lgan deb leksiya o'qidi. Biz unga odam maymundan paydo bo'lsa, nimaga xayvonat bog'idagi maymunlarnecha yildan beri turadi-yu, odam bo'lib qolmaydi, deb savol bersak, javob berolmadi. O'zlari hech narsani bilmaydi.

Xaydar- Rost aytasiz xo'jayin, o'zlari hech narsani bilishmaydi.

Safar- Qo'y endi o'sha lektoringni, kayfni ham buzdi.

Arsh qilamiz, ishrat qilamiz,

Mayin quy rohat qilamiz /to'xtaydi./

Xo'sh, Luqmonov, Frunze kolxoziga bordingizmi, g'alla masalasi nima bo'ldi?

Luqmonov – Borishga borib, ming pushaymon bo'lib ketdim. Raisga , g'alla vada qilgan ekansiz, desam qachongacha o'zlaring ishlamay, birovlarining omborigatikilib yurasizlar, dedi.

Safar- I-ya, nimaga? Rayhon ijorkomida vada bergan ekansiz, demakdingizmi?

Luqmonov – Dedim, debbaloga qoldim. U nima dedi ndeng? Kolxozning omboriga kolxozchilar xo'jayin dedi.

Safar – xa, bo'pti. /Rayimjon kiradi/.

Rayimjon- Chaqirgan ekansiz?

Safar - /kesatib/. Xo'sh, Rayimjon, daraklari yo'q, bunday xabar xam olay demaysiz, nima gap xo'jayin?

Rayimjon – Kesatmang, meni nimam xo'jayin? /Qosimjon kiradi./

Qosim – Salom! /Xech kim indamaydi. Bir chetga o'tiradi./

Safar – Bo'lmasa nimaga ishga chiqmaysan? Salkam 40 sentnerdan xosil oldim deb tepamizga chiqib olmoqchimisan?

Rayimjon – Siz gapni burmalamay, to'pa-to'g'ri nimaga menga laganbardorlik qilmaysang deyavering-da.

Safar – Ko'p aljirama, ig'vogar, bekorga javobgarlikka tortirib yuboraman.

Rayimjon- Tanqid qilding deb brigadirlikdan xaydadingiz-ku, yana qanaqa javobgarlikka torttirasiz xo'jayin?

Safar – Ishlamasang yo'qol! Qishloqda qorangni ko'rsatma.

Rayim - /kinoya bilan/. Shundaymi? Xo'p xo'jayin xo'p. Bunday oliy ximmatlari uchun rahmat /chiqadi./

Safar – E, padaringa lanat!

/Sarimsoq bilan Salomat kiradi/.

Sarimsoq – Kiraversak bo'ladimi? Salomalaykum /Safar indamayd./ Sen gapiraqol, xotin

Salomat- O'zingiz gapiravering, nima, tidingiz qisiqmi!

Sarimsoq- Yo'li bilan gapirmoqchi bo'lgan edin-ku, gapirmaysanmi endi.

Salomat- Gapiraman , gapirmay nima, rais azroilmidi, gapga tushinadi. /Safarga. / Rais, bolam, men Sarimsoq akangizga ishlagan xaqingizni kolxozdan borib oling, rais tosh emas-ku, xaqingizni beradi desam, undamaydi. Bormayman, yalinmayman dedi.

Yo'q, axir bu yalinish emas, o'z haqini so'rash demas xam, ko'nmaydi deng. Bizga ozroq pul kerak desangiz...

Safar- Pul! /qiziqib/. Nima, men pul fabrikasimanmi?

Salomat- Voy aylanib ketay, kolxozda bizga yarasha pul bordir, axir

Safar – Men o'likning qulog'iga tambur chertayotibmanmi.

Sarimsoq- Anan aytmadimi, bo'lgan gap shu-da.

Salomat- Axir biz qarz so'raganimiz yo'q-ku.

Sarimsoq- Yur deyman xotin, satqayi gaping ketsin.

Salomat – Pul yo'q emish-a, shuncha pullarni yer yutdimi?

/Sarimsoq, Salomat, chiqadi/.

Safar- E, g'alvang boshingda qolsin. Uf, bu odamlar jonimga tegdi. /telfon jiringlaydd./ Allo, kim bu, ey bormisiz. Ternovchilar xam bizni yo'qlar ekan-a, xayriyat. Labbay, xo'p, jonim bilan, ikki tonna desangiz xam to'g'irlab beraman. Be , kunjara xam pulmi , /yana telfon jiringlaydi./ Obbo... Allo! Kim bu? Xa- e, oqsaqol sizmisiz, ovozingizga nima bo'ldi, rasta bo'lganday do'rillab qopti. Nima-nima? Muhbir keldi diysizmi? Qanaqa muhbir? Men bilan uchrasharmishmi? Oqsaqol menga qarang, siz unga meni bor dedingizmi? E shuni chakki qipsiz, shularga asti tobim yo'q-da . menga qarang oqsaqol, xaligi o'rtoq bilan o'zingiz muomla qilib qo'ya qoling. Nima-nima? Yo'g'e , mening oldimga xech qanaqa muhbir –puhbir kelgani yo'q.

Qosim- Kechirasiz, o'sha oqsaqol aytgan kishi men bo'laman.

Safar - E-e, shunaqami, keling-keling, obbo siz-ey. Bola –chaqa katta bo'lishib yurishibdimi? Bizning kolhozga xam muhbirlar bo'lar ekan-a. Endi xari-pari sindrib yuborsak xam bo'lar ekan. Tanimaganimi qarang-a. kim biladi, peshonalaringga muhbir deb yozib qo'yilmas ekan. Xaydaar, xo' Xaydar, beri kel /qulog'iga bir nima dedi/. Tuvukmi? Qipqizil bo'lsin bor! /Xaydar chiqadi./ Obbo siz-ey, otlarini xam bilmayman.

Qosim- Otam Qosimjon, familyam Shovqiyev.

Safar- Qosimjon Shovqiyev sizmisiz? Anavini qarang-a. Gazetalarda juda ko'p ko'raman. Tunov kuni "Oltin tuhum" degan feltoningizni o'qigan edim. Yomon boplapsiz-ey, bay-bay. Shunaqa gaplarni qayoqdan topasiz-a? O'sha kolxozda o'n beshta xo'rozga bitta mikiyon to'g'ri kelarkanmi-a?

Qosim- Anovi kuni kelsam, siz yo'q ekansiz. Kolxovning ishlari bilan tanishib ketgan edim.

Safar- Rostdan-a. Gazetada o'qimadik-ku.

Qosim- Bugunmi, ertami o'qiysiz. Bu safar rayonga obkomning birigadasi bilan propaganda ishlarini tekshirgani keldim. Kolxozda leksiya masalasi qanday? Lektorlar buyrosi bilan shartnoma tuzilganmi?

Safar- Tuzilgan-tuzilgan, tuzilmasa qo'yamizmi? /Qo'ng'iroq jiringlagan xolda qichqiradi./ Luqmonov, xo' Luqmonov. /Luqmonov kiradi/

Luqmonov- Labbay xo'jayin.

Safar- Oblost leksiya byurosi bilan tuzilgan... nimaydi...

Qosim- Shartnomani, leksiya o'qilgan qog'ozlarni.

Safar- Xa, xa o'g'ilarni olib keeling.

Luqmonov- /kiradi./ Xo'jayin bizda leksiya to'g'risida shartnoma tuzilmagan, bu yil leksiya xam o'qilmagan.

Safar – Iya, nimaga? Es- pesingiz bormi o'zi? Men sizga nima degn edim, nimaga tuzmadingiz?!

Luqmonov- Buni Gulnorahon Yodgorova biladi. Partiya tashkilotning sekretari axir u kasal. Gulnor byuro azosi.

Safar- Xa aytgancha o'sha biladi. U shunaqa ishlar bilan shug'ulanadi.

Qosim- Men Gulnorxon bilan bu haqda gaplashdim. Unga siz shartnoma tuzamiz, deb vada bergan ekansiz. Xo'p, mayli /chiqa boshlaydi./

Safar- Iya, qaqqa? Sizga javob yo'q. Ovqat qildirayman.

Qosim- Rahmat. Menga xamma gap ravshan bo'ldi. Xayr. /chiqadi, Safar kuzatadi./

Luqmonov- Ana xolos, toza tomosha bo'ldi-ku. Men raisga ming marta aytdim, irimga bo'lsa xam shartnoma tuzib qo'yaylik dedim, sira ko'nmadi. /Safar kiradi./

Safar- Boring Xaydarni chaqirining, /Luqmonov chiqadi./

Safar- Ketmon chopdim bo'rilab,

Choponimga o'ralib.

Bu muhbirning oldida

Toza qoldim uyalib.

Kiygan to'nim oq desam,

Bilsam u ola ekan.

Gulnorani men do'st desam,

Boshimga balo ekan.

/Xaydar bilan Luqmonov kiradi./ Xaydar oshni to'xtat.

Xaydar- Xali oshga uringanim yo'q, jigar qoviryapman. Chiqsam go'sht yo'q ekan, shitobingiz zo'rligini ko'rib, bo'rdoqi qo'yni so'yib yubordim.

Safar- Nima, nima? Senga kim qo'y so'y dedi!

Xaydar- Shunaqa paytlarda qo'y so'yib yuborsam xursand bo'lar edingiz-ku. Endi xo'jayin o'zi juda xijolatbozlik bo'ldi-da.

Safar- E, kim biladi deysan. Men uni xaligi shishtquyamiz deb kelib yurganlarning sherigimikin deb o'ylabman. Bu ishlarni Gulnoradan bo'lak xech kim qilmaydi. O'sha doim leksiya, ommaviy ish, plakat, devoriy gazeta, xali u, xali bu deb g'idiyurag'iradi qilib yuradi. Muhbirga xam o'sha chaqimchilik qilgan.

Luqmonov – Gunlorning o'zi xam o'lgudek maxmadona. Bir piti-pitir. Nazarimda rais bo'lmaqchi.

Safar- Be, unga raislik tuship qoptima /Gulnor kiradi./

Gulnor- Salom, Safarali aka, mumkunmi? Yerlar xaydashga tayyor, lekin mineral o'g'itdan darak yo'q. Nima qilamiz. Traktorlar bekor turibdi?

Safar- Sen menga aql o'rgatma, bildingmi?

Gulnor- Voy, Safarali aka, sizga nima bo'ldi? O'zingiz o'g'it bilan taminlayman degan edingiz-ku.

Safar- Sen mening qilgan yaxshiliklarimni bilmasang ko'r bo'lasan. Gulnorani Gulnor qilgan kim?

Gulnor- Nimalar deyapsiz?

Safar- Sen ig'vogarni xaydash kerak deyapman.

Gulnor- Ig'vogar? Tavba.

Safar- Bilasanmi? Men bu kolxozni kolxoz qilguncha nimalar qilmadim. Xammaga balogardon, xamma yo'qqa yugurgan men. Senlar nima qilyapsan?

Gulnor- Bizning nima qilganimiz bunaqa yugurish bilan emas, senter bilan o'lchanadi. Biz, xaydab ishlagan yerlarning xar gektaridan qiriq sentnerdan xosil olindi. Bizni odam qilgan, xammaga tanitgan narsa shu. Siz nuqul u yoqqa yugurdim, bu yoqqa yugurdim deysiz. Nima uchun kolxoz aktivlariga ishonmaysiz? Siz notog'ri ish qilyapsiz.

Safar- Bo'lmasa, sen rais bo'l, mana pechatni ol. /pechatni sotadi./

Gulnor- Pechat o'zingizga buyursin. Men kolhozimda tartib bo'lsin deyman.

Safar- Gapirma ig'vogar, kolxozda tartib yo'q deb kim aytdi?

Gulnor- /qo'lidagi gazetani beradi/. Bo'lmasa mana bu feletonni o'qib ko'ring.

Safar- Nima, nima? Feleton?

Gulnor- Agar kolxozda tartib bo'lsa xalol ishlab kelayotgan, xaq so'zini aytib, sizni tanqid qilgan Rayimjonga o'xshagan kishilar quvg'in qilinmasdi. Ana endi qo'lingizdan kelsa meni xam xaydang. /chiqadi./

Safar- Xaydayman, izingni quritaman! O' sha feleton yozgan Shovqiyevga xam ko'rsatib qo'yaman. Mana feleton, mana feleton /gazetani yerga tashlab tepadi, Luqmonov bilan Safar chiqadi./

Xaydar- /gazetani olib o'qiydi/. "so'nggi nusxa " voy-bo'y Safar polvonni rosa qiya qilib yuboribti-ku. Endi bizni to'yimiz nima bo'larkin.

Ashula- Qatorlashib turadi oppoq o'lar,

Birov xafa, birovlar xursand kuylar.

Gulnorahoning ishlari bo'ldi chatoq,

Endi qachon bo'larkin bizning to'ylar.

PARDA

IKKINCHI KO'RINISH

Saxna birinchi ko'rinishdagi xona. Raisning kabineti bezatilmoqda.

-- -- --

Luqmonov- ashula:

Raisimiz oliftalar o'zlari,

Mayin, shirin aytsa doim so'zlari.

Oti rais, o'zi satang bir qarang,

Kelishadi idoraga o'zlari.

Bo'lib rais ayladi chunon havo,

Bo'ldi bizga davosi yo'q bedavo.

Turishlari, yurishlari nuqul g'ovg'a,

Idoraga yarashadi o'zlari /Gulnor kiradi./

Gulnor- Kuling-a, kuling . Namuncha nah urasiz. Yangi raismisiz binoydek yigit-ku. Rais kelmadimi?

Luqmonov- Yo'g'-a.

Gulnor- Ikki kundan beri meni umrim bekor o'tayapti. Safar ali akamning brigadasida kvadrat uyalab chigit ekib ko'ramiz deb traktorni olib borsam, xech kim yo'q. Rais kelsa shuni aytib qo'ying.

Luqmonov- Xo'p bo'ladi. /Gulnor chiqadi./ Yangi raisimiz binoyidek yigit emish. Safar polvon qayoqda-yu, bu qayoqda.

/Sarimsoq, Qumri stol ko'rsatib kiradi/.

Sarimsoq- O'rtoq Luqmonov stolni shunday qo'sak bo'ladimi?

Luqmonov- Sal mundoyroq qo'yinglar. Yana-yana, bo'ldi-bo'ldi. Ey, o'tib ketdi. Jichcha orqaga suringlar. Bas- bas.

Sarimsoq- Rais soat oltida keling degan edi, kemadi-ku.

Luqmonov- Soat oltida? Raislarning soati bo'ladimi. Nima ishingiz bor edi?

Sarimsoq- Anov kuni yangi raisimiz ololmay yurgan pulingizni to'g'rilab beraman degan edi.

Luqmonov- Kassada bir tiyin xam yo'q-ku. Yangi raisimiz xali koloxzning past-balandini xam bilmaydi, u qorong'l uyga kesak otganday yuriptida.

Sarimsoq- Bu raisning xam gapining tayni yo'qqa o'xshaydi. Bu nimasi ishlab-ishlab xaqingni ololmay sarson bo'lsang. /chiqa boshlaydi/.

Luqmonov- Sarimsoq aka mana bularni ola chiqib keting.

Sarimsoq- Bu gapni yangi raisingizga ayting, sadag'asi ketay shunaqa tirikchilikning /chiqadi/.

Qumri- Yangi raisimizni buncha yerga urasiz.

Luqmonov- E, siz gapga aralashmay ishingizni qilsangizchi.

Qumri- Xa nimaga aralashmas ekanman.

Luqmonov- Ana, aralashabering bo'lmasa /chiqadi/.

Norbo'ta - /kiradi. Qumrini ko'rmaydi./ O'-xo', ja xoy-xoy bo'lib ketibdi-ku. Anavini qarang-a. Ana joy u mana joy. Darvozasi zuxroyi bag'dodi, zulpini xalqayi e, Sulaymoni, assa-yu, dabdaba, uying bo'lsa shunaqa. Qani yoring bilan shunaqa joyda qo'shilishib qo'yaqolsang /ashula/

Ashula:

Qani yorim kelsachi,

Qoshginamda tursachi.

Olib ko'nglimni shu dam

Dardga davo bo'lsa-chi.

Qumri - /yashirinib turgan joyidan/.

Chiy baxmaldir to'yingiz

G'alatidir so'zingiz.

Muncha qilasiz parvoz

Nelar istar ko'nglingiz.

Luqmonov – Iye Qumrixon siz ham shu yerda edingizmi? Qarang ros joy bo'ptimi.

Qumri - Derazalariga bir qarang, mo'g'arlab ketibdi.

Luqmonov - /kiradi/. Xoy, siz gap sotasizmi yo ish qilasizmi. Bo'lmaysizmi, axir!

Qumri – Latta bo'lmasa, nima bilan yuvaman.

Luqmonov – Omborda bor dedim-ku.

Qumri – Men o'sha Xaydar sovuqning oldiga kirarmidim, turqi qursin o'sha piyanistaning.

Luqmonov – E, siz ham gapga tushunmaydigan narsa ekansiz-da, qani men bilan yuring.

Qumri - Bormayman dedim-ku, keltirib bersin.

Luqmonov – Asta’firullo... /chiqadi/.

Norbo’ta – Voy-bo’y, ja shitobingiz zo’r-ku, siz ham yomon chatoqsiz-da.

Qumri – Rost-da, ish qildirgandan keyin kerakli narsalarni topib bersin-da. Buning o’rniga jaxlimni keltirib nuqul Safar polvonni maqtaydi.

Norbo’ta – Har kim o’ziga yoqqan kishisini maqtaydi-da.

Qumri - Siz kimni maqtar edingiz, yangi raisnimi, eski raisnimi?

Norbo’ta – Menmi, rostini aytsam, men sizni maqtar edim.

Qumri - Voy, bu nima deganingiz?

Norbo’ta – Xato qilgan bo’lsak, tavba qildik, Qumrixon.

Luqmonov - /tashqaridan/. Qumrixon, hov Qumrixon, buyoqqa chiqing / Qumri chiqadi/.

Norbo’ta – Ey, hayriyat, oz bo’lmasa tergovga qolib ketayozdim-a. Hozir shunaqa-yu, uylanganimizdan keyin qanaqa bo’larkin. Bu qizga qanaqa qilib gap boshlab, o’z dardimni aytishni bilmayman.

Ashula - Bersam yorga ko’ngilni, noz qiladi,

Bu ishvani u balkim soz qiladi.

Bilmam bular nechundir, bilmam na holder,

So’zlay desam dardimni boz qiladi.

Xotinlarning qilig’l noz ekan-da,

Marhamati, shavqati oz ekan-da.

Ko’zga ilib biplarga qilmaydi exson,

Peshonamning sho’rlari oz ekanda.

/Duqmonov bilan Haydar kiradi/.

Luqmonov - Bularga ish buyurib Baraka topmaysan, kishi. Tovba. Bor-e, qilgan ishing boshingdan qolsin.

Xaydar - E, qo'ying o'sha Qumrini, boshqa odam qurib ketibdimi. Bir shap-shap. /Atrofga qarab/ O'-ho', ja g'alati bo'pti-ku. Yangi raisimiz deyman, ishni kabinetdan boshlar ekanlar-da. Xa, do'st, qoqindi. O'zi bu raisimiz ja po'rim ekanmi.

Luqmonov - Ha, ming qilsa ham shaxarlik yigit-da.

Haydar – Rost. Raisimiz xuddi dazmollaganday siliqq-a, posonini ko'rsa kishi hurqiydi, u, qishloqqa qanaqa qilib o'rganarkin.

Luqmonov - Orzuga ayb yo'q deydilar. Men sizga aytsam, bu erning yukini yengil qilib yurgan Safar polvon edi.

Norbo'ta – Safar polvon qanaqa yukimizni yengil qilib qo'yibdi.

Haydar – Bo'lmasa rais poson qilib yurgani bilan kolxo'zning yuki yengil bo'lib qolarmidi. Basharasiga qara, umrida pomido'rning qayerda bitishini ham ko'rmagan bu odam.

Norbo'ta – Sendaga dexqonchilikni biladiganlardan nima foyda?

Haydar - Senlarga posoni bo'lsa bo'ldi-da. Bugun deng, "Kommunizm" kolxo'zidagi Matmusa akani ko'rdim, u menga "raislarning ja tamanno ekanmi, hay-hay, ehtiyot qilinglar, tag'in ko'z-po'z tegmasin, bo'yniga ko'zmunchoq osib qo'yinglar" deb toza piching qildi. Nima qilsa ham, Safarali akamning yo'rig'i boshqa edi-da. Uning savlatini o'zi bunaqa raislarning to'rttasiga teng.

Norbo'ta – Karnaychi karnaychini maqtaydi deganday maqtay, maqta. Nima Safar polvonni sotmoqchimisan. O'lma dallol. Yangi raisimiz senga kabgir shiriqlatib, dutor diringlatib qo'ymaydi, ko'zingni och.

Aydar - Olsa mendan omborchiligini oladimi, men yalinadigan banda emasman.

Norbo'ta – Senga ham hech kim yalinmaydi./urishib qoladi./

Luqmonov - E, Norbo'ta bir gapdan qoling. Shunaqa janjalni nima keragi bor. /Norbo'tani chiqarib yuboradi./ Shu bilan teng bo'lasizmi. /Rayim kiradi. Ular ko'rmay gaplashaveradi./

Xaydar - Bu ham mayli-ku, men Safarali akamning bunaqa bo'lib ketganiga, to'ymizning a'zaga aylanganiga turib-turib hafa bo'laman, o'rtoq Luqmonov.

Luqmonov – Nimaga unaqa deysiz. Men, deydi Safarali akam ayuar Rayimjon olaman deb yurgan Gulnorahonni Xaydarga olib bermasam otimni boshqa qo'yaman, deydi. Rayimjon bilan Gulnor Safarali akamning oyog'idan oz muncha tortdimmi. Shularni deb gazetaga urildi, raislikdan tushdi, shuning uchun u Ro'zvon hola bilan gaplashib, ishni pishitib qo'ydi.

Xaydar - Qachon?

Luqmonov - Qaysi kuni mening oldimda gaplashishdi.

Xaydar – Ro'zvon hola nima dedi?

Luqmonov – Qizim Gulnoraxonning ixtiyori sizda dedi.

Xaydar - Safarali akam nima dedi?

Luqmonov – Gulnoraxonni Xaydarga olib beraman, dedi.

Xaydar - Mening otimni eshitganda Ro'zvon holaning yuzi qanaqa bo'ldi?

Luqmonov – Sal kulib qo'ydi.

Xaydar - Kulgan bo'lsa rozi bo'pti-da.

Luqmonov - Ming marta rozi bo'ldi./Rayimni ko'rib qoladi./ Iye keeling Rayimjon. Safar kiradi./

Safar – Idorani ja boplabsizlar-ku, bu ishingizga qoyil. Siz ham ja ustasi parang-da.

Luqmonov - Endi o'zingdan o'tar gap yo'q-ku rais.

Safar – Raisingiz nimasi, endi brigadir deyavering.

Luqmonov- O'rganib qolgan ekanmiz, brigadier deyishga tilo ham qovushmaydi.

Safar – Rais qani?

Luqmonov – Hali dalaga, Gulnorhonning oldiga boraman deb yurgan edi.

Safar – Gulyat qilib yurishibti deng. Yosh bo'ydoq yigit-da, nima deding Haydar?

Luqmonov – Gulnorhon sizni ustingizdan shikoyat qilib keldi.

Safar – E, qo'yavering. Gulnor bizga kvadrat-uyalab chigit ekishni o'rgatarmish. Ensam qotganidan dalaga ham chiqmadim.

Luqmonov - /derazaga qarab/. Ana rais kelayapti Tashqariga chiqib turinglar.

Xaydar – Safar aka, yangi raisimiz odamlarni navbat bilan qabul qilar ekanlar. Yuring, barvaqt ocherd olib qo'yaylik /kulishadi, chiqadilar./

Luqmonov – Rayimjon, sizga rais kerakmi, kelgandan keyin kirarsiz. Axir tartib degan gap bor.

Rayim – Siz bunaqa tartibingizni pishirib yeng, tuzukmi?

Luqmonov – Ey, ana bo'lmasa o'tiravering /chiqadi/.

Rayim – Bu gaplar naxotki rost bo'lsa, naxotki Gulnorhon mening qalbimni titratgan muxabbatimni sezmasa, bu yoqda yangi raisimiz u bilan gulyat qilib yurgan emish, bu yoqda bo'lsa Safarpolvon Gulnorhonni Xaydarga olib berish uchun onasi bilan kelishib qo'ygan emish. Sira tushunmayman.

ASHULA

Ko'rmasam bo'lg'ay ekan yorning jamolin koshki,
Ekmasam bo'lg'ay ekan sevgi niholin koshki,
Ko'rdim-u bo'ldim griftor bu baloga men netay
Bilmasam bo'lg'ay ekan yorning firoqin koshki.
Endi yo'q tanlarda toqat ishqida o'rganaman,
Dardida dardlar chekib kechalar to'lg'anaman,
Ul aziz yor yuz o'girdi, dillari abgoraman,
So'rmasam bo'lg'ay ekan ishq sharbatin koshki.

/Gulnor kiradi. Rayimjonni ko'rmay o'zicha gapira boshlaydi/.

Gulnor – Rais yo'q-ku kutsam kelib qolarmikan.

/Birdan Rayimjonni ko'rib o'ng'aysizlanadi uzoq jimlik hukm suradi, ikkisi bir-biriga yer ostidan qaraydi/.

Rayim – Gulnorhon, men sizdan bir gap so'ramoqchiman. Lekin, rostini aytsang, aldamang, yuragimni qiymalamay to'g'ri javob bering.

Gulnor- Nima gap o'zi, sizga bir nima bo'ldimi?

Rayim – Tilayog'lamalik qilmang. Safar polvon sovchilik qilibdi, oyingiz sizni Xaydarga bermoqchi bo'pti-ku.

Gulnor - Nima-nima, gapirmang, men hali sizga o'xshab o'z ixtiyorimni yo'qotib qo'yganim yo'q. Siz mast bo'lib qopsiz, ahvolingizni qarang.

Rayim – Axvolimga nima qipti. Men bilan gaplashgani nomus qilayapsizmi? Xo'p-xo'p, ko'zingizga ko'rinmasam, shu qishloqdan butunlay yo'qolsam bo'ldimi?

Gulnor - U sizning ishingiz.

Rayim- Shundaymi?

Ashula - Yor agar or etsa sendan, sen unga bosh egmagin,

Hajrida kuyib mudom, yo'lida ko'zyosh to'kmagin.

Mayli jisming kuysa –kuysin, mayli ishqing dardida,

Bevafodan yuz o'gir, ammo qarindosh bo'lmagin.

/chiqadi./

Gulnor - E, aziz yor, ko'nglimni sen buncha vayron etmagin

Oxiri ezib mening dilimni xunxon etmagin

Mayli jismim kuysa-kuysin, mayli ishqing dardida

Bevafo deb yuz o'girma, buncha hayron etmagin.

Naxotki u shunday behuda gaplarga ishongan bo'lsa.

/Qodirov Rayimjonni zo'rlab boshlab kiradi/.

Qodirov – Qani buyoqqa yuring, men sizni qidirib yurgan edim.

Xo'sh, endi nima qilmoqchisiz. Siz oldin ilg'or brigade boshliqlaridan ekansiz. Raisni tanqid qilib quo'g'inga uchrabsiz. Endi nimaga ichib ko'chalarga tentirab yuribsiz?

Rayim - So'ramang.

Qodirov - Nimaga, unaqa deysiz, siz yigit ekansiz, sizning holingizni biz so'ramasak, kim so'raydi. Undan keyin biz sizni shaxarga o'qishga yubormoqchimiz.

Rayim – O'qishga?! Nima men qishloqqa sig'may qoldimmi? Hech qayoqqa bormayman.

Qodirov – Nima uchun?

Rayimjon - Bormayman vassalom /Gulnor chiqadi/.

Qodirov - Siz nimaga achchiq qilyapsiz, shu ham gapmi, ilgari gektaridan qirq sentnerdan hosil olgan ekansiz. Ana uni mardlik deyiladi. Lekin bu ishlaringiz nomardlik. Yigit degan ham shunaqa bo'ladimi?

Rayim – Mayli, nima desangiz deyavering, men o'qishga bormayman /chiqadi/.

Luqmonov - Rayimjon, ho Rayimjon to'xtang deyman.

Qodirov - Uf... Bu odamlar bilan qanday ishlash mumkin? Har kuni shunday ahvol. Kolxozdagi ishlarni tuzatish o'rniga kunning odamlarga qozi bo'lish bilan o'tadi. Bu yoqda bo'lsa buldozerdan darak yo'q.

Luqmonov - Bularga yaxshilik qilib bo'larmidi.

Qodirov – Nega u bunaqa qilib yuribdi?

Luqmonov - Uning bo'lgani shu /pauza./ Aytgancha sizga xat keldi.

Qodirov – O'rtoq Luqmonov, ilgarilari ham kolxo'zda ahvol shundaymidi? Qanaqa qilsa ish yurishadi?

Luqmonov - Endi xo'jayin kolxo'zlik-da ham ahvol shunaqa.

Qodirov - Kolxo'zchilik deganingiz nimasi?

Luqmonov – Endi, odamlarning sut-qatig'li bor, bozor-o'char qilib ketadi-da.

Qodirov – Shundaymi? Sut-qatig' deng, sut-qatig' /pauza./

Luqmonov – Mana xo'jayin, kabinetingizni ham qoyilmaqom qilib qo'ydik. Durust bo'libtimi?

Qodirov - /pauza/. Men uch-to'rt kishiga soat oltiga kelinglar degan edim, kelishmadimi?

Luqmonov- Kelishdi-yu, yana ketib qolishdi. Ba'zilari anov uyda cohered bo'lib o'tirishibdi.

Qodirov- Nimaga?

Luqmonov – Men sal tartib bo'lsin dedim-da.

Qodirov - Bunaqa tartibni qo'ying, ayting hamma kirsin./ Luqmonov chiqadi, Xaydar, Safar, Gulnor, Norbo'ta kiradilar, so'rashadilar/. Safarali aka dalangizda kvadrat-uyalab chigit ekib ko'rish uchun kecha ham bugun ham traktor olib bordik. O'zingiz ham, odamlaringiz ham ko'rinmadi.

Safar – Sal mazam yo'q edi.

Qodirov – Nimaga xabar qilmadingiz?

Safar – Gapning to'g'risi o'rtoq Qodirov, men brigadirlikni eplay olmayman.

Qodirov –Nima uchun?

Safar - Yerimizni kengaytiramiz dedingiz, ho'p dedik. Undan keyin hamma yerga kvadrat qilib chigit ekamiz dedingiz, indamadik. Endi 120 gektar berganingiz nimasi? Bu odam bilan nima qilib bo'ladi?

Qodirov – Mexanizatsiyadan ko'proq foydalanasiz, vassalom.

Safar - E, uka, holva degan bilan og'iz chuchimaydi, har qanday yerda ham besh-olti marta yaxshilab ketmon chopig'l o'tkazilmasa sira hosil olib bo'lmaydi.

Qodirov - Maqsad faqat hosil emas, shu bilan kolxo'zchilarning qo'l mexnatlarini kamaytirish.

Gulnor - Kvadrat desa, Safarali akamni qushxonaga yetaklaganday bo'ladi. Shuning uchun ishni orqaga sudrab yuribdi.

Safar – Sen nimaga jikillaysan?!

Gulnor – Rost-da, men ikki kundan beri dalangizga traktorni olib borib bekorga qaytib kelyapman, yana jikillaysan deysiz-a, uyalmaysizmi?

Luqmonov – Kasal edim deyaptilar-ku.

Gulnor – Kasal odam to'yma-to'y yuradimi?

Safar - Xo'p-xo'p, ana seniki rost, endi qutildimmi? /chiqa boshlaydi./

Qodirov – Safarali aka, Safarali aka deyman!

Safar – Qo'ying uka, meni qiynamang, tinch yuray.

Qodirov - Yaxshi emas, mayli, hozir tobingiz yo'q borib dam oling, lekin... /Safar chiqadi, Xaydar ham chiqmoqchi bo'ladi./ Xaydarvoy, Xaydarvoy deyman! Bu nima qiliq!!

Xaydar - Mana keldi-ku.

Qodirov - Ertaga dalada ishlovchilarga issiq ovqat qildirish kerak.

Xaydar - Qilib yurgan ishimiz. Yangilik emas-ku.

Qodirov - /hayajonlanib/. Yangilik bo'lmasa loqalli mana shu eskilikni qiling, tushundingizmi! Boring. /hamma sekin-sekin chiqadi, Qodirov hayol surib qoladi/. Bu odamlar bilan ikki dunyoda ham murosqa qilib bo'lmaydi. Yo ular turishi kerak, yo men. Boshqacha iloj yo'q. /xatni o'qiydi/ "Oy kunlarim yaqin, juda qo'rqqapman. Nahotki siz rais bo'lib oldim deb oilani butunlay unutgan bo'lsangiz. Lazokat".

Eh jonim, sen mening holimdan xabardor bo'lsang, bunday xat yozmas eding. Nima qilay? /telefon/ qayerdan, raykomdan. Salom o'rtoq Usmonov. Ahvolimizni asti so'ramang. Safarpolvon, Luqmonov, Xaydar kolxozdan haydalmasa ishiniz yurishmaydiganga o'xshaydi. Unaqa qilish yaramaydi deysizmi, nimaga? /uzoq quloq soladi, trubkani qo'yadi/. Tavba, kolxo'zda ahvol bunday-u, ularni haydash emas, tarbiyalash kerak emish. Qanday qilib ularni tarbiyalash, yo'lga solish mumkin? Qanday qilib?

/Rayimjon mast holda chopib kiradi/.

Rayimjon - O'rtoq Qodirov mayli endi men Xirotda yuborsangiz ham roziman.

Qodirov – Yo'q endi hech qayoqqa bormaysiz. Biz o'qishga o'zi hohlagan kishilarnigina yuboramiz, yalinib yubormaymiz.

Rayimjon – Yo'q, o'rtoq Qodirov men sizga yalinaman, yolvoraman, iltimos qilaman, yuboring. Bu erda endi boylab quysangiz ham turmayman, ketaman.

Qodirov – Ertaga xushyor bo'lganingizdan keyin gaplashamiz.

Rayimjon – O'rtoq Qodirov, axir.

Qodirov – Gap tamom, siz hozir mastsiz.

Rayimjon – Yoq, men mast emasman / dovdirab yiqila yozadi. Qodirov uni suwab devanga yotqizadi /. Men mast emasman, men ... mast...

PARDA

Uchinchi qo'rinish

Yana idora. Bo'sh. Birozdan keyin Rayimjon shoshib kiradi.

Rayimjon – I – ya, rais yoq – qu. Hayrlashmay ketabersam, xafa bo'lmas mikin. Gulnorxon bilan ham bir gaplashib ketishim kerak edi. Lekin u bilan qanday gaplashaman, o'zim hammastlikda rosa qovun tushiribman, endi gaplashishga yuz ham chidamaydi.

Musiqqa – Men ketar bo'ldim bugun, arzim bayon aylab ketay, Dilda armon qolmasin, yorga ayon aylab ketay. Bu jahonda tenggi yo'q ruhsori holimni ko'rib, Pokiza ishqimni unga ashyon aylab ketay.

Tunlarim uyqusiz o'tdi, u stamkor bilmadi,

Bilmasa mayli, dilafkor bir nishon aylab ketay

Shuncha qilsanm, kulmadi, dardlarga to'lsam bilmadi

Mayli bilsin, unga ishqimni ayon aylab ketay

/ Norbo'ta bir qo'lida tugun, bir qo'lida chemodan ko' tarib kiradi / .

Norbo'ta – Rayimjon, ho' Rayimjon, I – ya bu nima qilganingiz. Chemodan bilan tugunni menga ko'tartirib qo'yib, o'zingiz buyoqda yuribsiz – ku.

Rayimjon – Rais bilan bir xayrlashib ketay deb kirgan edim, yo'q ekan.

Norbo'ta – Rais bilan xayrlashadigan odam ashula qiladimi?

Rayim – Siz mana bu xatni raisga berib qo'ying, tuzukmi? / uylab / . Yoq, kerak emas.

Norbo'ta - / elkasini qisadi /. Ixtiyoringiz. Qani bo'lmasa ketdikmi?

Rayimjon – Ha, ketdik.

Norbo'ta – Shaharga borgandan keyin bizni unutib yuborma. Bunday xat – pat yozib turing – a, tuzukmi? / chiqadilar, telefon jiringlaydi, Luqmonov kirib trubkani oladi. /

Luqmonov – Allo! Kim bu? I – ye salom – salom, bola – chaqalar, sog'liqlar, Labbay? Yo'q, uni hozir to'g'rilab bo'lmaydi. Besh – to'rt tonna beda kolxozga hech gap emasku, lekin yangi raisimiz sal injiqroq. Ha, o'zingiz bilasiz – ku, sinamagan otning sirtidan o'tma deganlar. / chiqadi, birozdan so'ng Gulnor kiradi./

Gulnor – Rayimjon ketdi. U aqalli orqasiga qayrilib ham qaramadi. Men bilen xayrlashishga ham arzimadi.

-O-

Yorim meni oxir o'tlara tashladi ketdi,
Ishqimni xor etib ko'ziga ilmadi ketdi,
Xajrida cheksam fig'on yuz bor bilmadi ketdi,
Ul eri sitamkordan begona erurman.
/Qodirov , Norbo'ta kiradi/.

Norbo'ta – Men umrimda sut sotgan bola emasman, qanaqa bo'larkan?